

Tarbiyasi qiyin o'smirlar psixologik xususiyatlarini amaliy o'rganish

Chinnigul Nasriddinova Latipova
ashurovramzidin@gmail.com
Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada bugungi kunda o'smirdan shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko'rinish hisobiga o'zini qabul qilish darajasining ortishi talab qilinishi, bundan tashqari "Men timsoli" korreksiyasi texnologiyasi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish tizimi ta'lim sub'ektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: o'smir, pedagog, kompetentlik, tarbiya, oila. Ota-ona, referent, xulq-atvor

A practical study of the psychological characteristics of adolescents with special needs

Chinnigul Nasriddinova Latipova
ashurovramzidin@gmail.com
Bukhara State University

Abstract: This article requires adolescents to increase their level of self-acceptance due to personality traits, successful communication, universal qualities and appearance, as well as the technology of correction of "I am" and deviant behavior in adolescents with difficult upbringing. the behavioral management system is intended to provide psychological and pedagogical support to the success of educational subjects.

Keywords: teenager, educator, competence, upbringing, family. Parent, referent, behavior

Ma'lumki, tarbiyasi qiyin o'smirlar bilan ishlash jarayoni har bir o'smirning ta'lim samaradorligiga u yoki bu darajada ta'sir etuvchi shaxslilik xususiyatlarini o'rganish va tadqiq qilish bilan bevosita bog'liqdir. Zero, ta'lim muassasalaridagi ta'lim jarayonining asosiy qatnashchilari o'quvchilar va o'qituvchilardir.

Bugungi kunda ta'lim muassasalari - o'zgarib borayotgan uzluksiz ta'lim tizimining eng dinamik jabhasi hisoblanadi. Mazmuniy va tashkiliy ma'noda u

o'quvchining individual ta'lim yo'nalishini shakllantirish imkoniyati hisoblanib u o'z ichiga ehtimolli-zaruriy va shu bilan birga shartli-zaruriy bilim va malakalarni qamrab oladi.

Tarbiyasi qiyinlik quyidagi mezonlar asosida tahlil qilinadi:

- o'zini o'zi qabul qilishning past darajasi;
- boshqalarni qabul qilishning past darajasi,
- tabiatiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin bo'lgan emotsionallikning namoyon etilishi;
- boshqalarga bog'liqlik, ya'ni eksternallik;
- ustunlikka intilish.

Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasi natijalarini qayta ishlashda umumta'lim maktablarining o'quvchilari o'rtasida dezadaptatsiya belgilarining mavjudligini tasdiqlovchi ma'lumotlar olindi. Faollik ko'rsatkichining pasayishi tadqiqotda ishtirok etgan o'smirlarning deyarli barchasida kuzatildi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi "men timsoli" xususiyatlarini tadqiq etish o'quvchilarining mazkur kategoriyasining umumlashtirilgan psixologik portretini tuzish imkonini berdi. Tanlab olish mezonlari quyidagilardan iborat edi:

- Ijtimoiy-psixologik moslashuvchanlik so'rovnomasidagi dezadaptatsiyalashish ko'rsatkichining 68 balldan past bo'lishi;
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha uchinchi referent guruhining mavjud emasligi (M.N.Ovchinnikova);
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha reflektiv faoliyatning past darajasi
- "Men kimman?" metodikasi bo'yicha o'zini o'zi qabul qilish va maxsuldor shaxslilik ma'nosining yo'qligi.

O'smirlar o'zlarini hozirgi holatlarida adekvat baholaydilar, o'zlarini shaxs sifatida qabul qiladilar, o'zlarini ijobiy, ijtimoiy jihatdan ma'qul xususiyatlar egasi sifatida anglashga qodirlar, ma'lum ma'noda o'zlaridan qoniqqandirlar. Bir vaqtning o'zida esa ular har doim ham o'z faoliyatlari natijalarini adekvat baholash, o'zlarini boshqalar bilan taqqoslashga erishavermaydilar. Ular o'z imkoniyatlariga tanqidiy qaray olmaydilar, ko'pincha o'z imkoniyatlarini yuqori baholaydilar, ayniqsa bu narsa o'qishga bo'lgan munosabatda yaqqol ko'zga tashlanadi. Ularning ko'pchiligi uchun o'ziga nisbatan talablarning noadekvat va noreal darajasi xosdir.

Maktab o'quvchilarining yuqoridagi xususiyatlarini o'rganishimiz natijasida olingan ma'lumotlar boshqa tadqiqotchilarning ma'lumotlarini ham tasdiqladi.

Tarbiyasi qiyin o'smirlardagi ijtimoiy-psixologik mavqe xususiyatlarini va ularning o'z kelajaklarini prognozlashtirishlarini tahlil qilish natijasida biz hozirgi mavqe bilan kelajakdagi hayotiy istiqbollari o'rtasidagi nomutanosiblikni ham aniqladik. O'smirlar hozirgi vaqtda o'zlarining hech narsaga qodir emasliklarini qayd etib, bu holatning kelajakda ham o'zgarishi mumkinligini ko'rmaydilar va o'qish bilan

bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan muvaffaqiyatsizliklardan o'qishdan bosh tortish (uning kerakmasligini bahona qilib), ishlashni istamaslik, xulq-atvorning deviant shakllariga o'tib ketish kabi holatlardan qochishga intiladilar.

O'smirlar birinchi o'ringa ota-onalari bilan munosabatlarda avtonomlikni qo'yadilar. Ota-onalar esa o'smirlarga shaxsiy va ijtimoiy yetuklikni uyg'unlashtirishga intiladilar. Ular o'smirlarni muvaffaqiyatsiz, nomustaqil va no'noq deb hisoblab ularga ishonmaydilar, lekin bir vaqtning o'zida ularni qiyinchiliklardan chegaralashga va ularning xatti-harakatlarini nazorat qilishga harakat qiladilar. O'smirlarning fikricha ota-onalar ularni qabul qilish o'rniga ko'pincha inkor etadilar. Avvalo xulq-atvor shakllarida namoyon bo'ladigan mustaqillikka intilib, maktabning zamonaviy o'quvchisi ich-ichidan ota-onasi tomonidan qo'llab-quvvatlashning zarurligini his etadi, uning yo'qligi esa o'smirdagi shaxslilik bezovtalanishini orttirib yuboruvchi stressor hisoblanadi. Binobarin, mazkur tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan o'smirlarda o'tkazilgan so'rov natijalari ota-onalar bilan oilaviy o'zaro munosabatlar rivojlanishidagi quyidagi tendensiyalarni qayd etish imkoniyatini beradi. Avvalambor ota-onasi tomonidan o'ziga befarq munosabatni his etib o'smirlar oilada befarq va rasmiy o'zaro munosabatlar tajribasini o'zlashtiradilar. Bu esa kelajakda o'z baxtli oilaviy hayotlarini qurish borasidagi o'ziga ishonmaslik va bezovtalanishga olib kelishi ehtimol. O'smirlar qayd etgan ota-onalar tomonidan tarbiyaviy ta'sirning nomutanosibliigi ularda bezovtalanishning yuqori darajasi, o'zga ishonmaslik atrof muhitning doimiyligini his etishning mavjud bo'lmasligiga olib keladi. Bu o'smirlarda mas'uliyat hissining yetarlicha shakllanmasligiga olib kelishi ehtimol, chunki ularga mustaqillik berilishiga qaramasdan (yuqori avtonomlik, past darajadagi direktivlik), o'smirlar qattiq va temir intizom qoidalarini yetarli me'yorda his qilmaydilar, o'z navbatida qoidabuzarlikdan keyingi e'tirozlarni ham yetarlicha qabul qilmaydilar. Bularning barchasi bo'layotgan voqealar uchun javobgarlikni boshqalarga yuklashda namoyon bo'ladigan eksternal xayotiy pozisiyaning shakllanishiga olib keladi. Demak, oila turmush tarziga ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida o'z ichiga bolaning shaxslilik rivojlanishiga sabab bo'luvchi ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-psixologik jabhalarning keng ko'lami o'z ichiga oladi. Ular orasida alohida o'rinni ota-onalarning shaxs xususiyatlari, ularning ustanovkalari va qadriyatlar yo'nalishi egallaydi. Ota-onadagi tasavvurlar, qarashlar va e'tiqodlar tizimi ularning tarbiyalovchi faoliyatida aks etadi (bilimlar ko'lami va kutilmalar darajasi, qarashlarning o'ziga xosligi va e'tiqodlari, bola rivojlanishi xususiyatlari va uni belgilovchi omillar haqidagi tasavvurlar misolida) va ularning xulq-atvorida aks etadi. Bu esa o'smir shaxsidagi u yoki bu xususiyatlarning shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalarning bunday qarashlari, tasavvurlari va kutilmalari o'smirlar bilan muloqotda muhim o'rin tutadi. O'quvchilar sotsiumi uchun baholash oiladagi baholashdan keskin farq qiladi. Juda ko'p o'smirlar o'quv muassasalariga, o'quv faoliyatiga, shuningdek, o'qituvchilar

ommasiga salbiy munosabatda bo'ladilar. Maktab o'quvchilari - tarbiyasi qiyin o'smirlarning psixik rivojlanishlari xususiyatlari va darajalarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, aksariyat dezadaptatsiyaga moyil o'smirlarda xotira mahsuldorligining pastligi, mexanik eslab qolishning ustun turishi, umumlashtirishning konkret va funksional darajalari ustunlik qilishi, abstrakt fikrlashning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan ajralib turadilar. Bundan tashqari past darajadagi mehnatga layoqatlilik, tez charchab qolish hollari ham bunday toifadagi o'smirlarga xosdir. Bu omillar o'quv ko'nikma va malakalarining yetarli darajada shakllanmasligidagi sabablardan biridir. O'qishdagi doimiy qiyinchiliklar, muvaffaqiyatsizlik vaziyatiga tez-tez tushib qolish o'qishga bo'lgan ijobiy motivatsiyaning pasayib ketishi va mazkur o'quvchilarda o'quv faoliyatini qabul qila olmaslikka olib keladi. Albatta bunday holatlarni bartaraf etish uchun esa yetarli darajadagi psixologik kompetentlik talab qilinadi.

Yuqoridagilarga asoslanib xulosa sifatida aytish mumkinki, barcha tarbiyasi qiyin o'smirlarda refleksiv faoliyatning yetarlicha rivojlan-maganligi yaqqol sezilib turadi. Zero, bugungi o'smirdan shaxslilik xususiyatlari, muvaffaqiyatli muloqot, umuminsoniy sifatlar va tashqi ko'rinish hisobiga o'zini qabul qilish darajasining ortishi talab qilinadi. Bundan tashqari "Men timsoli" korreksiyasi texnologiyasi va tarbiyasi qiyin o'smirlardagi deviant xulq-atvorni boshqarish tizimi ta'lim sub'ektlari muvaffaqiyatiga psixologik-pedagogik hamrohlik qilishni ko'zda tutadi. Bu jarayonda esa har bir pedagogning psixologik kompetentligi darajalarini aniqlash bilan bog'liq holatlar chuqur o'rganilishi va tahlil qilinishini lozim, deb o'ylaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Elov Z.S. Berdiyeva D.Sh. Psychological reasons for suicide motivation in adolescents with deviant behavior. Oriental renaissance: innovative, educational, natural and social sciences scientific journal. volume 2, issue 2 February 2022 1003-1009
2. Elov Z.S. O'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. science and education scientific journal volume 3, issue 3 march 2022 442-447
3. Elov Z.S. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. O'quv-metodik qo'llanma. 2021. Buxoro 1-164.
4. Elov, Z. S. (2016). Researches of the Reasons Conditions. Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive, 5(1), 49-53.
5. Elov, Z. S. (2022). O 'smirlik davrida shaxs xulq-atvorida kuzatiladigan reaksiyalarning psixologik ta'siri. Science and Education, 3(3), 442-447.
6. EZ Sattarovich. CONDITIONS AND THE REASONS OF CASES OF THE SUICIDE AMONG THE STAFF OF LAW-ENFORCEMENT BODIES. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol 5 (3) 2017

7. Furqatovich, U. F., & Sattorovich, E. Z. (2022). SUICIDE-AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(02), 349-354.

8. Jo'Rayeva, Z. A., & Maxmudova, Z. M. (2022). Sudga oid psixologik ekspertizani tashkil qilish va uni o'tkazishning o'ziga xosligi. Science and Education, 3(4), 1916-1922.

9. Olimov L.Ya, Avezov O.R., Baratov Sh. R. Psixologiya nazariyasi va tarixi (o'quv qo'llanma) <https://library.sammi.uz/Library/> 1 (1), Ўзбекистон

10. Olimov L.Ya, Baratov Sh. R. Аvezov O.P. Psixologiya nazariyasi va tarixi. Darslik. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. Toshkent. 2019. -B. 494.

11. Olimov L.Ya. Shaxs psixologiyasi. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2019. -B. 280.

12. Olimov L.Ya. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. Darslik. Buxoro, "Durdona". 2019. - 460.

13. Olimov, L. (2020). ЛЯ психологической защита: ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu. uz](http://buxdu.uz)), 2(2).

14. Olimov, L. (2021). maqola СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ: СТРЕССЛИ ВАЗИЯТЛАРДА ПСИХОЛОГИК ҲИМОЯ МЕХАНИЗМЛАРИ ВА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu. uz](http://buxdu.uz)), 7(7)..

15. Qizi, S. M. Z., & Sattorovich, E. Z. (2022). PRIORITIES OF PSYCHOLOGICAL SERVICES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(3), 900-904.

16. UFF Elov Ziyoddullo Sattorovich. SUICIDE - AS A GLOBAL PROBLEM FACING HUMANITY. WEB OF SCIENTIST: INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH JOURNAL 1 (Volume 3 ...

17. Yarashovich, O. L. (2020). O'smirlarning ba'zi dinamik xususiyatlari kontekstida kurashish xatti-harakatlarini o'rganish xususiyatlari. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ ([buxdu. uz](http://buxdu.uz)), 1(1).

18. ZM Maxmudova, AZJKYK Olimov, L Ya. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021

19. қизи Расулова, М. Б., & Олимов, Л. Я. (2022). ЎСМИР ШАХСИ РИВОЖЛАНИШИДА АҲЛОҚИЙ НОРМАЛАР МУАММОСИНИНГ ҲОЗИРГИ

ЗАМОН ПСИХОЛОГИЯСИДА ТАДҚИҚ ЭТИЛИШИ. ТАЪЛИМ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ОНЛАЙН ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ, 2(3), 204-207.

20. Махмудова З.М., Олимов, Л. Я. (2021). ЭКСТРЕМАЛ ВАЗИЯТЛАРДА КОПИНГ ХУЛҚ-АТВОР ВА СТРАТЕГИЯЛАР НАМОЁН БЎЛИШИНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

21. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Психологические механизмы девиантного поведения. Психология XXI века. Ярославль., 2020. -С. 125-127.

22. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари ва копинг хулқ-атвор намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари: стрессли вазиятларда психологик ҳимоя механизмлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2020 yil, 4 son 109-115 b.

23. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 4 son 103-112 b.

24. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Ўсмирларда психологик ҳимоя механизмларининг намоён бўлишининг ўзига хослиги. XXI аср психологияси 1 (1), Ўзбекистон

25. Олимов Л.Я., Махмудова З.М. Экстремал вазиятларда копинг хулқ-атвор ва стратегиялар намоён бўлишининг ижтимоий психологик хусусиятлари. *Psixologiya ilmiy jurnali*. 2021 yil, 3 son 98-106 b.

26. Олимов Л.Я., Эшов Э.С. Авезов О.Р. Девиант хулқ-атвор психологияси. "Durdon" nashriyoti. Vuxoro. 2019. -В. 420.

27. Олимов, Л. Я. (2020). Olimov ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТИДА АХБОРОТ-ПСИХОЛОГИК ХАВФСИЗЛИКНИ ТАЪМИНЛАШ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 2(2).

28. Элов, З. С. (2014). Теоретические основы суицидального поведения. *Psixologiya*, 4, 16.

29. Элов, З. С. (2015). Суицидал уринишларни содир этишга сабаб бўлувчи асосий омиллар (Ички ишлар органлари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 2, 18.

30. Элов, З. С. (2016). Суицидал хулқ шаклланиши ижтимоий-психологик муаммо сифатида (ички ишлар идоралари ходимлари мисолида). *Psixologiya*, 3, 23.

31. Элов, З. С. (2017). Профилактика самоубийств сотрудников оvd. Вестник интергративной психологии, 208-212.

32. Элов, З. С. (2021). Замонавий жамиятда суицид (ўз жонига қасд қилиш) муаммолари. *Eurasian journal of Law, Finance and Applied Sciences*, 2, 26-28.

33. Mahmudova, Z. M., & Olimov, L. Y. (2021). Social psychological characteristics of psychological defenses manifested in adolescents in extreme

situations. Вестник интегративной психологии журнал для психологов, (22), 233-237.

34. Махмудова, З. М., & Олимов, Л. Ү. Osmirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. "Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ" nashriyoti. Buxoro. 2021.

35. Олимов, Л. Я., & Махмудова, З. М. (2021). Психодиагностикани автоматлаштириш ва фанни ўқитишда инновацион педагогик ва ахборот-коммуникацион технологиялардан фойдаланишнинг ўзига хослиги. Масофавий таълимни ташкил этишнинг педагогик-психологик жиҳатлари мавзусидаги Республика илмий-амалий анжуман материаллари. Тошкент, 489-493.